
BAYRAM TUHFASI: TOSHLOQDA ISHLAB CHIQRISH KORXONALARI OCHILIB, YANGI ISH O'RINLARI YARATILDI

Eng ulug', eng aziz ayyom – Mustaqilligimizning 32 yillik bayrami arafasida Toshloq tumanidagi “Yoshlar” sanoat zonasida yangi ishlab chiqarish korxonalari o'z faoliyatini boshlamoqda. Natijada hududda ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Tadbirkor Soibjon Qodirov tomonidan faoliyati yo'lga qo'yilgan korxonalar loyiha qiymati 1 mlrd.so'm, shundan o'z mablag'i hisobidan 700 mln. so'm bo'lib, bank kredit mablag'i 26 ming. dollarni tashkil etadi. Korxonada yiliga 120 tonna turli xil salafan paketlari ishlab chiqariladi. Hozirda bu yerda 8 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bayram arafasida “GOLDEN VERSAL” hususiy korxonasi tomonidan santexnika mahsulotlari ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yildi. Loyiha qiymatiga ko'ra, 800 mln.so'm, shundan o'z mablag'lari hisobidan 800 mln. so'mni tashkil etadi. Korxonada yiliga 1300 dona vanna ishlab chiqariladi. Ushbu korxonada ham 10 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bugun ochilish marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev, tuman prokurori Shuhratjon Musayevlar ishtirok etdi. Ular korxonalar faoliyati bilan tanishib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ko'zdan kechirdilar.

2023-08-31 12:47:46